

## O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA "TARBIYA " FANINI O'RNI VA ROLI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12600519>

**Usmonova Nargiza Raximjonovna**

*Qo'qon universiteti*

*"Ta'lim " kafedrasi o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash da "Tarbiya" fanini o'rni va roli judayam katta sanaladi. Chunki vatan mehri farzandga ona suti orqali singdiriladi o'quvchilarga vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda vatanni sevishga ko'z qorachig'idek asrab avaylashga o'rgatish oiladan boshlab singdirilishi maqsadga muvofiqdir.*

### **Kalit so'zlar**

*vatanparvarlik tarbiyasi, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, vatan mehri, tarbiya, ma'naviy tarbiya, vatanparvarlik.*

Jamiyatning kelajagi yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyati yuksak darajada shakllangan, ijodkorona fikrlay oladigan zamonaviy bilimlardan xabardor davr bilan hamnafas yoshlarga har tomonlama bog'liqdir. Vatanning kelajagani o'ylaydigan yurt uchun jonini fido aylaydigan qonida buyuk ajdodlarimiz qoni jo'shib turgan millatni kelajagini har narsadanda ustun qo'yadigan yoshlarimizga bog'liq vatanni ertasi va kelajagi. Vatavparvarlik o'zbek xalqining qalbi shuuriga ona suti bilan kirgan deyishadi ota bobolarimiz. Vatanparvarlik mavzusida juda ko'p olim va allomalarimizning pedagogik qarashlari, ijod namunalari-yu va bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Buyuk allomalarimizdan Hazrat Mir Alisher Navoiy, Sohibqiron Amir Temur, Shoh va Shoir Muhammad Zaxiriddin Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya'ni bizning zamonamizda ham o'ziga xos o'rin egallagan bo'lib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo'llanib kelinmoqda. Vatanparvarlik tushunchasiga tarif berishdan avval vatan degan tushunchani ma'no mazmunini anglamoq darkor.

Vatan tushunchasini har kim har xil ma'noda, o'zining ma'naviy qarashlariga qarab o'z darajasida talqin qiladi. Bu - insonning tug'ilgan, kindik qoni to'kilgan joydir, shodon bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davri o'tadigan, ta'lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, qalbdan mudom qo'msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning

ravnaqi yo'lida xizmat qilish, uni yomon ko'zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha'nini himoya qilish - bularning barchasi siz-u bizning oldimizda turgan mas'uliyatli vazifalardandir.

Vatan mehri oliy qadriyatdir. O'z tug'ilgan vatanini sevmagan o'z millatning qadriga yetmagan o'zganing ham, bashariyatning ham, kurrai zamin obodligining ham qadriga etmaydi. Demak, Vatanga sadoqat-haqiqatga sadoqatning, millatga mehr, ahli basharga mehrning ibtidosidir. Busiz na adolat g'alaba qiladi, na haqiqat yuzaga chiqadi, na insonning o'z shaxsiga ehtiromi shakllanadi. Chunki Vatan mehrini yo'qotgan shaxs oyog'i ostidagi zaminni yo'qotadi, go'yo tayanchsiz millat qoladi. Vatanga muhabbat ajdodlar merosiga qiziqish, milliy ma'naviyatdan bahramandlik, o'z shaxsiy salohiyatiga ishonch, umumbashariyatga hurmat, kelajak oldida mas'ullik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Demak, mustaqillikni mustahkamlash, ma'naviyat ona yurtga muhabbatdan, millat manfaatlariga sadoqatdan boshlanadi, har bir shaxsning o'z ichki imkoniyatlarini Vatan manfaati yo'liga sarflashi bilan namoyon bo'ladi.

**Vatanparvarlik** – bu kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan dono xalqimiz. Avvalo vatanparlik tuyg'usini oila atalmish muqaddas makonda onamizning oq suti beshikdagi allasi orqali, otamizni duo-yu olqishlari orqali, endigina tetapoya qadam tashlayotgan mittigina jajji vijudni poyqadami orqali ongi shuurimizga singdirib borish oilaning bosh mezoni sanaladi. Undan keyingi bosqichda esa Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish orqali o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda maktab o'quvchilarini vatanni asrab avaylashga, yot g'oyalarga berilmaslikka, vatanning har bir qarich tuprog'ini ko'zga to'tiyo qilishga, millatni kelajagini bunyod etishga, vatanni bir parcha yeri uchun jon fido aylagan ota-bobolarimiz muqaddas ruhlarini shod aylashga, milliy g'urur, millit sha'ni, milliy o'zlikni anglashni singdirish maqsadga muvofiq sanaladi. Uzluksiz Ma'naviy tarbiya konsepsiyasida albatta Tarbiya fanini o'qitish orqali Ta'lim muassalaridagi o'quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali

marosimlarning yangi, ta'sirchan shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish<sup>185</sup>ligi keltirilgan.

Umumta'lim muaasalarida tahsil olayotgan o'g'il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g'ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kerakligi aytib o'tilgan. Qiz bolalarda esa ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarinlik, ziyraklik, mehmondo'stlik, bolajonlik, murosalilik, orastalilik, saranjomlilik, xushmuomalalilik, pazandalik kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish amalda qo'llanilib kelinmoqda.

Yoshlarda faol pozitsiya va o'zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, mas'uliyatni his etish, qat'iy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish, ularni qat'iyatli bo'lishga o'rgatish lozimdir. Yoshlarda vatanparvarlik darajasi ko'rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish va baholashda sevimli xalqning shon-sharafi, qadr-qimmatini, madaniyati va an'alariga ehtiyotkorlik bilan qilingan munosabatda o'z ifodasini topadi. Vatanparvarlik fuqarolar O'zbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o'zgartirish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishga ma'naviy jihatdan yordam beradi.

Xulosa shuki O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbilashda bobolarimiz o'gitlari momolarimiz pandu-nasihatlari orqali o'quvchilarga vatan tuyg'usini singdirib boorish yurtga sadoqat, vatanparvarlik, ezgulik, bag'rikenglik tuyg'ularni ezgu g'oyani teranroq shakllantirsak, ularda daxldorlik, yurt kelajagiga mas'uliyat, muqaddas zaminimiz tinchligi, osoyishtaligini asrash, uning taraqqiy etishiga hissa qo'shish tuyg'ulari qaror topadi va yuksaladi. O'quvchilarni ona-Vatanga muhabbat, boy tariximizga hurmat ruhida tarbiyalash uchun ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi, ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish kerak. Toki, yoshlar milliy o'zlikni anglash, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin.

<sup>185</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-4676839>

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1 Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent.: Sano Standart, 2017-yil.

2 Ro'ziyeva .D.I Tolipov .O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent.: Innovatsiya-Ziyo. 2019-yil.

3 Yuzlikayeva E, Axmedova M, Qurbonova S, SH Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik . Toshkent. TDPU, 2012-yil.

4 Pedagogika .M Toxtaxodjayevning umumiy tahriri ostida .Darslik. Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati. 2010-yil

5 O' Asqarova, M. Xayitboyev, M. Nishonov. Pedagogika . Darslik Toshkent " Talqin" 2008-yil.

6 Z. Nishonova . Rivojlanish va ta'lim psixologiyasi. Darslik. Toshkent. 2019-yil.

8 Raximjonovna, U. N. (2024). Tarbiya fanini o'qitish orqali o'smir yoshdagi o'quvchi qizlarda ma'naviy tarbiyani yuksaltirish. *journal of child psychology and psychiatry*, 7(3), 15-19.

9 Raximjonovna, U. N. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Tarbiya" fanini o'qitishning zarurati. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 19, 37-40.

10 Raximjonovna, U. N. (2023). Maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berish metodlari. *pedagog*, 6(6), 241-247.

11 Asilova, S. X. (2023). O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEKANIZIMLARI.

12 Xatambojevna, A. S. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 6-7 YOSHLI BOLALARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(17), 344-350.

Raximjonovna, U. N. (2023). O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA "TARBIYA" FANINI O'QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education. *Social Science & Humanities*, 11(6), 232-237.

11 <https://lex.uz/ru/docs/-4676839>